



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 6-avgust, № 157 (8780)

Ceshanba Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA GULDAGI VAZIFALAR MUHOKAMA ETILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-avgust kuni raqobatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirish, yirik monopoliyalarni tiyib turish bo'yicha qilinayotgan ishlar raqobat muhitiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Xususan, so'nggi besh yilda 25 tadan ortiq tovarlar bo'yicha raqobat muhiti yaxshilandi. 7 ta faoliyat turi bo'yicha raqobatni cheklovchi ekskluziv huquqlar bekor qilindi. Davlat ishtirokidagi korxonalar 42 foizga kamayib, tadbirkorlik subyektlari soni 1,6 barobar ko'paydi.

O'tgan yili "Raqobat to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga qo'shimcha ta'sirchan vakolatlar berildi. Shu asosida olib borilgan o'rganishlarga ko'ra, ayrim tashkilotlarda raqobatga zid qarorlar qabul qilish, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish, savdoda ustun mavqedan foydalanish kabi holatlar bor.

Shu bois sohadagi ishlar qamrovi va samaradorligini oshirish maqsadida Raqobatni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, bozorga kirishni erkinlashtirish, tadbirkorlarga teng sharoitlar yaratish bo'yicha navbatdagi qadamlar belgilandi.

Masalan, tadbirkorlik subyektlarining bozorlarga erkin kirishini qiyinlashtiruvchi normativ-huquqiy moddalar va ortiqcha talablar bekor qilinadi. Tartibga solish yukini

qisqartirishga qaratilgan yengilliklar joriy etiladi, jumladan, ruxsat beruvchi jarayonlar va litsenziyalarning javobgarlikni majburiy sug'urtalash bilan almashiriladi.

Tabiiy monopoliya sohalari mustaqil bozor regulatorylari joriy etiladi. Tabiiy monopoliya sohalari bilan o'zaro bog'langan va raqobatni rivojlantirish imkoniyati bo'lgan tovar bozorlarida tabiiy monopoliya subyektlari ishtiroki cheklanadi.

To'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan davlat xaridlari ko'lami qisqartirilib, davlat xaridlari raqobatli usullarga to'liq o'tkaziladi. Raqobatni cheklovchi individual xususiyatga ega davlat yordami, shu jumladan, ekskluziv huquq, imtiyoz, preferensiya va yengilliklar bekor qilinadi.

Davlat organlari axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini shakllanishi zanjirining barcha bo'g'inini raqamli monitoring qilish yo'lga qo'yiladi. Raqobatga qarshi kelishuv va xatti-harakatlar, til birlashtirish holatlarida ma'lumot taqdim etgan shaxslarni oshkor etmaslik va mukofotlash tizimi joriy etiladi.

Umuman, mazkur konsepsiya samarasida energetika, neft-gaz, suv xo'jaligi, yo'l qurilishi, temir yo'l va aeroport xizmatlari kabi qator sohalarda 17 turdagi davlat monopoliyasini

bosqichma-bosqich tugatish choralarini ko'riladi. Davlat xaridlarida raqobatga zid harakatlarning oldi olinib, bu jarayonlarning shaffofligi ta'minlanadi. Tovar-xomashyo birjalarida takliflar ko'paytirilib, xaridorlarning tanlash imkoniyati kengaytiriladi.

Prezident sohadagi ishlarni davom ettirib, erkin bozor tamoyillarini ta'minlash, kadrlar tayyorlash bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar berildi. Iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish, ayrim funksiyalarni bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazish kerakligi ta'kidlandi. Tovar, moliya va raqamli bozorlarda raqobat holatini doimiy tahlil qilib, tartiblarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritib borish vazifasi qo'yildi.

So'nggi uch yilda joylarda 2 mingdan ortiq raqobatga zid hujjatlar aniqlangan. Ularning aksariyati mahalliy hokimliklar va vazirliklar tomonidan qabul qilingan. Shu bois Raqobat qo'mitasining hududiy boshqarmalari ishini jonlantirish, kadrlar malakasini oshirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, qo'mita faoliyatini jamoatchilikka ochiq qilish va ommaviy axborot vositalarida yoritishni kuchaytirish kerakligi ham aytili. Bu qonun buzilishining oldini olish, shaffoflik va halollik muhitini shakllantirish nuqtayi nazardan muhim ekanini ta'kidlandi.

## ICHKI YO'LLARNI SAQLASH VA TA'MIRLASHGA OID TAKLIFLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-avgust kuni ichki yo'llarni saqlash va ta'mirlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda jami 184 ming 582 kilometr avtomobil yo'li bor. Shundan qariyb 142 ming kilometr ichki xo'jalik yo'llaridir.

So'nggi to'rt yilda ichki yo'llarni qurish va ta'mirlashga 15 trillion so'm ajratilgan. Mahallalarda, chekka qishloqlarda ham ko'chalar ravon bo'lib, aholi farovonligiga xizmat qilmoqda. Lekin ularni saqlashga mas'ul tizim yo'q.

Chunki Avtomobil yo'llari qo'mitasi davlat va xalqaro ahamiyatdagi yo'l hamda ko'priklar bilan shug'ullanadi. Ichki yo'l va ko'priklar esa mahalliy hokimliklar balansida. Hozirgi kunda 43 ming kilometr ichki yo'llar ta'mirlal holatda, 2 ming 354 ta ko'priknig "egasi" aniq emas.

Shu bois tuman darajasida bu masalalarga mas'ul tizim yaratish rejalashtirilmoqda. Taklifga ko'ra 208 ta tuman

va shahar Obodonlashtirish boshqarmalarida ichki yo'llarni saqlash xizmatlari tashkil qilinadi. Ular eng zarur 4 turdagi maxsus texnika bilan ta'minlanadi. Buning uchun budgetdan tegishli mablag' ajratish ko'zda tutilyapti.

Tahlillarga ko'ra yo'llarni saqlashga yo'naltirilgan mablag' ta'mirlash xarajatini bir necha barobar qisqartiradi. Agar o'z vaqtida pul ajratilib, ichki yo'llar to'g'ri ekspluatatsiya qilinsa, ularni ta'mirlash muddatlari ham kamida 2 barobar uzayadi.

Shu bois mutasaddilarga ichki yo'llarni saqlash va ta'mirlashni moliyalashtirish bo'yicha yangi mexanizmlarni joriy etish borasida ko'rsatma berildi. Aholi talabidan kelib chiqib, ichki yo'llarni ta'mirlash va yangilarini qurish ishlarini davom ettirish zarurligi ta'kidlandi.

O'zA.

## Senat qo'mitasida

### EKIN MAYDONLARINI IJARAGA BERISH TARTIBI TAKOMILLASHTIRILMOQDA

Senatning Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi majlisida "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi. Unda senatorlar, Yoshlar parlamenti va qo'mita huzuridagi Ekspertlar guruhi a'zolari, vazirlik hamda idoralar vakillari, OAV xodimlari qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish, uni bozor aktiviga aylantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramay, bugungi kunda turli mezonlarga tayangan holda yer uchastkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berish tartibi yerning haqiqiy bozor bahosini aniqlash hamda yerga bo'lgan huquqni

garovga olgan shaxslarning garov obyektini adolatli realizatsiya qilish imkonini bermayapti.

Qonun bilan Yer kodeksi hamda "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Yaylovlar to'g'risida"gi, "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi, "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'y xatidan o'tkazish to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

## Infratuzilma



Pungon – Namangan yo'nalishi:

### TRANSPORT O'TKAZUVCHANLIK SALOHİYATI OSHADI



Namangan viloyatida yo'lovchi sohasida yirik loyiha ijrosiga start berildi. Gap shundaki, poytaxtni Farg'ona vodiysi bilan bog'lovchi magistralning

Pungon – Namangan avtomobil yo'lidagi 75 kilometrlik qismida rekonstruksiya ishlari boshlanmoqda. Umumiy qiymati 368 million dollarga teng loyiha Xitoy Xalq Respublikasining "Citic construction CO. LTD" kompaniyasi tomonidan "moliyalashtirish+I oyihashtirish+qurilish" tamoyilida amalga oshirilmoqda.

– Pop, Chust, To'raqo'rg'on tumanlari va Namangan shahrining kirish qismigacha cho'zilgan ushbu ikki tasmali avtomobil yo'lining transport vositalarini o'tkazish imkoniyati hozirga kelib ancha cheklanib qolgan edi, – deydi viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i Baxtiyor Nurmatov. – Mukammal ishlab chiqilgan loyihaga ko'ra u zamonaviy trassaga aylanadi. Birinchi navbatda, butun masofaga hozirgi asfaltli beton qoplama o'rninga sementli beton qoplama yo'tqizilib, to'rt tasmaliga aylantiriladi. Bu bilan yo'lining yuk ko'tarish qobiliyati 13 tonnaga yetkaziladi.

Aytish lozimki, rekonstruksiya tadbirlarida yo'lining harakat qismini 25 metrga kengaytirish bilan transport vositalari kunlik o'tish jadalligini hozirgi 21 mingdan 40 mingga yetkazish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, 14 ta ko'priq qayta qurilib, yo'l bo'yida bir qator zamonaviy infratuzilma inshootlari ham barpo etiladi.

Loyiha ijrosi 2024 – 2028-yillarga mo'ljallangan bo'lib, rekonstruksiya ishlari bo'yicha to'plangan xalqaro tajribalar keng qo'llangan holda ro'yobga chiqariladi.

"Dunyo" AA.  
Istanbul

Qudratilla NAJMIDDINOV  
("Xalq so'zi").

## Mulohaza

### VAKOLAT VA IMKONIYAT

Xalqaro kuryerlik xizmati va bojxona brokeri faoliyati yanada kengayadi

Mamlakatimizda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berishning zamonaviy mexanizmi va tartib-taomillari joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda, avvalo, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda bojxona brokerlari xizmatidan foydalanish tartibini belgilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro kuryerlik xizmatlari bozori kun sayin rivojlanib bormoqda. Binobarin, iste'molchilarning hozirgi talablariga moslashishda keng imkoniyatlar yaratish zarurati mavjud.

Bu haqda so'z borganda Oliy Majlis Senatining ellik to'rtinchi yalpi majlisida "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga bojxona brokeri faoliyatini hamda xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish bo'yicha faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun senatorlar tomonidan ma'qullanganini alohida ta'kidlash lozim. Chunki ayni qonun ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga solishda juda muhim.

## O'zbekiston va Qozog'iston:

### TARIXIMIZ – MUSHTARAK, MAQSADIMIZ – YAGONA

O'zbek va qozoq xalqi bir o'zandan suv ichgan, tarixi, taqdiri, ildizi tutash, urf-odatlari, qadriyat u an'analari uyg'un. Azaldan bu ikki xalq o'rtasida quda-andachilik, qon-qarindoshlik mustahkamlab kelgan. Aytish mumkinki, jug'rofiya bizni yaqin qo'shni qilib qo'ydi, tarix esa birodarlarga aylantirdi. Shu sababli bu ikkala millatning turmush tarzida, tilida, adabiyoti va madaniyatida umumiy jihatlari ko'plab uchraydi.

## Nuqtai nazar

O'zbekiston Qozog'istonning eng yaqin do'sti. Mamlakatlarimiz o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida bitim imzolangan va aloqalarimiz ana shu ruhda davom etayotgani buning yaqqol isbotidir. Bizni yagona o'tmish bog'lab turganidek, birgalikdagi rivojlanishning istiqbolli yo'llari bardavom bo'lishiga ishonchimiz komil. Rahbarlarimizning azmu shijoati bilan o'zaro aloqalar yanada faollashdi. Bu ham bo'lsa, o'zbek va qozoq xalqlari tabiatidagi mardlik, sofdillik, insoniy fazilatlar tufaylidir. Buyuk qozoq adibi Abay "Qozonning kelib chiqishi haqida birmuncha so'z" nomli maqolasida o'zbek xalqi

haqida alohida to'xtalib: "...o'zbeklar ekmagan ekin, ular olmagan hosil, savdogarlarining bormagan joyi yo'q... Xullas, ularning qo'lidan kelmagan ish yo'q. Ular qozoqlarning tirigiga ham, o'ligiga ham yaraydi. Ziyraklik, mohirlik, epcillik, uddaburonlik ham shularda, sipollik, odob ham shularda", deb qardosh o'zbek xalqiga yuksak baho bergan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga boshlanayotgan navbatdagi davlat tashriifi ham ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaga ratifikatsiyasidan so'ng yangi sur'at olgan ikki

tomonlama hamkorlik masalalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu tashrif Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) va Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)ning yaqinda bo'lib o'tgan sammitlari fonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Unda ikki tomonlama masalalar bilan birga mintaqadan tashqari munosabatlarni o'z ichiga olgan yagona mintaqaviy kun tartibini ishlab chiqish masalalari ham atroflicha muhokama qilinadi.

Geosiyosiy beqarorlik, bir-biriga ta'sir etayotgan voqea va jarayonlarning soni ortib borayotgan bir sharoitda uchrashuvlar o'tkazish, ikki tomonlama va mintaqaviy muammolarni muhokama qilish zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, dunyoda o'zaro ishonchga putur yetayotgan bir pallada Qozog'iston va O'zbekiston to'liq erkin savdo rejimiga o'tishni va o'rta muddatli istiqbolida o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 10 mlrd. dollarga yetkazishni rejalashtirmoqdaki, bu iqtisodiy sheriklikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ladi.

## «AYQULASH» QORAQALPOQ DAVLAT MILLIY FOLKLOR ANSAMBLI XALQARO FESTIVALDA IKKITA NOMINATSIYADA G'OLIB BO'LDI

Shu yilning 24-iyul – 4-avgust kunlari Istanbul shahrining Buyukchekmeje tumanida xalqaro madaniyat va san'at festivali bo'lib o'tdi.

Yigirma beshinchi marotaba uyushtirilgan festivalda 75 ta davlat vakillari ishtirok etdi. Unda O'zbekiston nomidan "Ayqulash" qoraqalpoq davlat milliy folklor ansambli qatnashdi.

## Biz va jahon

Tadbinning ochilish marosimida Istanbul viloyati gubernatori Ekrem Imomo'g'li ishtirokchilarni qutladi. "Ayqulash" folklor ansambli tomonidan ijro etilgan o'zbek va qoraqalpoq milliy qo'shiqlari, kuy hamda raqslari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Festivalda qatnashgan mamlakatimiz Bosh konsulxonasi diplomatlari o'z taqdimotlarida O'zbekistonning turistik jozibadorligi,



Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Termiz va Xiva kabi shaharlarimizdagi tarixiy obidalar va muqaddas qadamlar haqida so'zlab berdi. O'zbekistonda sayyohlik sohasini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, turistlar oqimini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, turkompaniyalarga taqdim etilayotgan imtiyozlar, xorijiy mehmonlarning xavfsizligini

ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarga alohida urg'u berildi. Quvonarlisi, "Ayqulash" qoraqalpoq davlat milliy folklor ansambli festival yakuniy natijalariga ko'ra "Eng yaxshi ansambli" va "Eng yaxshi sozanda" nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

"Dunyo" AA.  
Istanbul

### EKIN MAYDONLARINI IJARAGA BERISH TARTIBI TAKOMILLASHTIRILMOQDA



Xususan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion savdolari orqali ijaraga berish hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijarachilariga ijaraga berilgan yer uchastkalari bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazish, ya'ni qayta ijaraga berishga ruxsat etilmoqda.

Yuridik shaxslarga elektron onlayn-auksion, ochiq elektron tanlov yoki tanlov o'tkazmasdan davlat organlarining qarorlariga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishga (qayta ijaraga berishga) yer uchastkasiga bo'lgan ijaraga berish huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran besh yil o'tgach yo'l qo'yilishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, yer uchastkasini ijaraga olish

huquqi kredit olish uchun garovga qo'yilgan va kredit majburiyati bajarilmagan taqdirda, kreditorlar tomonidan mazkur yer uchastkalariga bo'lgan ijaraga berish huquqini yerdan foydalanish maqsadini o'zgartirilmagan holda onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish tartibi amaliyotga kiritilmoqda.

Mazkur qonunning qabul qilinishi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga berishda turli bahsli mezonlarga tayangan ochiq elektron tanlov o'miga shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan elektron onlayn-auksion savdolari joriy etilishiga va bu orqali qishloq xo'jaligi sohasiga yangidan-yangi investitsiyalar kiritilishiga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida ko'rib chiqilgan masala yuzasidan senatorlar hamda majlis ishtirokchilari tomonidan qator fikr-mulohazalar bildirilib, qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

## VAKOLAT VA IMKONIYAT

### Xalqaro kuryerlik xizmati va bojxona brokeri faoliyati yanada kengayadi

Bugungi kunda bojxona brokerlari faoliyati yo'nalishida ham ayrim muammoli holatlar kuzatilmoqda. Jumladan, deklaratsiyalash bo'yicha xizmat ko'rsatish bozorida naqd pul olish orqali "qora brokerlar" faoliyat yuritmoqda. Ushbu faoliyat yo'nalishida "yashirin iqtisodiyot" ulushi tobora ko'payib boryapti. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi bilan deklaratsiyalovchi shaxs o'rtasida shartnoma imzolamayotgani oqibatida soliq idoralarda bunday moliyaviy amaliyotlar hisobga olinmay qolmoqda.

Tahlillarga ko'ra 2021 - 2023-yillarda xalqaro pochta va kuryerlik orqali kirib kelgan jo'natmalarda jami 1 723 ta holatda bojxona qonun buzilishi aniqlangan.

Shuningdek, import va eksport faoliyati hujjatlarini rasmiylashtirishda yetarli malakaga ega bo'lmagan mutaxassislar, ya'ni ixtiyoriy shaxslar tomonidan bojxona deklaratsiyalari xato to'ldirilishi oqibatida bojxona to'lovlarini noto'g'ri undirish holatlari uchramoqda. Bunday nomaqbul vaziyat bojxona brokeri faoliyatini yuritish uchun ruxsatnoma berish tartibi 2018-yilda bekor bo'lgandan so'ng yuzaga keldi.

Shu o'rinda ayrim raqamlarga e'tibor qarataylik: 2022-2023-yillarda deklaratsiyalarni noto'g'ri taqdim etish oqibatida 326 930 ta holatda 383,6 milliard so'm qo'shimcha bojxona to'lovi undirilgan.

Bojxona brokeri sifatidagi faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsat berish tartibi bekor qilinganidan so'ng 2018 - 2023-yillar mobaynida 156 534 ta huquqbuzarlik holati aniqlangan. Vaholanki, 2016 - 2018-yillarda ushbu ko'rsatkich atigi 4 409 tani tashkil etgan.

Bundan tashqari, jo'natmalarni yetkazib berish faoliyatini amalga oshiruvchi kuryerlik tashkilotlari uchun aniq talab va maqomlar belgilanmagan. Buning

oqibatida ayrim nohalol tadbirkorlik subyektlari tomonidan xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berishda bojxona to'lovlarini to'lashni chetlab o'tish holatlari uchramoqda.

Xizmat ko'rsatayotgan kuryerlik tashkilotlari tomonidan fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlaridan noqonuniy foydalangan holda bojsiz olib kirish normasi doirasida tijorat maqsadidagi tovarlarni mamlakatimizga olib kirish kabi holatlarga imkon yaratib berilmoqda. Bu, o'z navbatida, "yashirin iqtisodiyot" ulushi ortishiga sabab bo'layotir.

Shuni ham qayd etish joizki, xalqaro kuryerlik jo'natmalarini faoliyatini bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish maqsadida Jahon bojxona tashkilotiga a'zo bo'lgan 100 dan ortiq davlatlar bojxona idoralari o'rtasida so'rov o'tkazilgan. Unda ishtirok etgan mamlakatlarning 85 foizi qonunchiligida bojxona brokerlari faoliyatini amalga oshirish uchun bojxona organlari tomonidan reguliyativ funksiyalar asosida belgilangan mezonlarga mos bo'lgan shaxslarga ruxsat berilishi qayd etilgan.

Endi yaqinda Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullangan tegishli qonun haqida so'z yuritiladi. Yangi qonun 4 ta moddadan iborat bo'lib, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartibi-taomillari to'g'risida"gi Qonunga bojxona brokeri va xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan.

Avvalambor, bojxona brokeri va xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish bo'yicha faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi belgilanmoqda. Ya'ni vakolatli organlarni xabardor qilish tartibida olib boriladigan faoliyat turlari qatoriga qo'shimcha sifatida

bojxona brokeri faoliyatini amalga oshirish va xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish ham kiritilmoqda. Bunda ushbu subyektlar o'z faoliyatini boshlagani yoki tugatgani to'g'risida iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasini xabardor qiladi.

Qolaversa, vakolatli organni xabardor etmasdan faoliyatni amalga oshirganlik, shuningdek, xabardor qilish tartibida faoliyat yuritish uchun belgilangan talab va shartlarning bajarilgani yuzasidan vakolatli organga yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar berganlik uchun muayyan miqdordagi jarimalar kiritilmoqda. Jumladan:

- bojxona brokeri sifatida faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik haqidagi xabarnoma bermasdan faoliyatni boshlaganlik uchun - bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari darajasida jarima;
- xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish bo'yicha faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabardor qilmaganlik uchun - bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari darajasida jarima qo'llash nazarda tutilmoqda.

Ushbu qo'shimchalar faqatgina bojxona brokeri faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga tegishlidir. Bunday tartib o'z nomidan bojxona organlariga deklaratsiya taqdim qiladigan tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etilmaydi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish va bojxona brokeri sifatida faoliyatni amalga oshirishda mavjud qoidabuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

**Mahmudjon PARPIYEV, Oliy Majlis Senati Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi a'zosi.**

## To tirik ekansan: KURASH, ISHLA, YON!

Bugun 6-avgust. Chilla chiqdi. Yozning "beli sindi", u ortda qolmoqda. Ammo issiq kunlarning tafti ikki haftagacha sezilib turadi. Bamisoli qizigan tandir astagina soviganidek, issiq hali-beri ketgisi kelmaydi. O'zimizcha, chilla chiqdi, deb quvonamiz. Yoz o'tdi, deb xursandmiz. To'g'ri, yana bir mavsum tarix, qadim moziy mulkiga aylanayotir... Shu onda mulohaza qilishimiz kerakki, bu bilan bizning umrimiz ham o'tib bormoqda.

### Mushohada

Kunlar ketidan kunlar, oylar ketidan oylar ildamlaydi. Faslar almashadi, yillar o'tadi. Va shu ham aniqki, vaqtning beshafqat dolg'alarida hayotimiz kemalari ham yelib bormoqda. Yana bir yilga teng miqdorda sochimizga kumush tola aralashdi, umr karvoni deb atalmish sayohatimiz davom etmoqda. Yozhimiz ulg'aygani sari dunyoqarashimiz, fikrlarimiz ham o'zgarib boradi.

Umrimizning o'tkinchiligini anglashimiz bizni hayotni yanada kuchliroq sevishtga, qadrlashga, foydali, ibratli ishlarni ko'proq amalga oshirib, o'zimizdan yaxshi iz qoldirishga undaydi. Zero, millat uchun, xalq uchun, Vatan uchun ezgu ishlarni qilishga ulgurish, vaqtdan unumli foydalanish - insoniylik burchimiz.

Shoir Shuhrat yozganidek:

**To tirik ekansan: kurash, ishla, yon!**  
**To tirik ekansan: sev, sevil, quvon!**  
**To tirik ekansan: izla, qidir, top!**  
**To tirik ekansan: intil, yuksal, chop!..**

Tirikligimiz Yaratganga shukrona keltirishimizga asos bo'lishi bilan birga, xayrli maqsadlar yo'lida kurashishga, sevil-sevilishga, izlanishga, intilishga, yuksalishga imkoniyat ekanini unutishga haqqimiz yo'q!

**Sherzodxon QUDRATXO'JA, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.**

### QONUNCHILIK PALATASI FRAKSIYALARIDA

# HAYOTIY ZARUR QONUN LOYIHALARI KO'RIB CHIQLI

**Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda dastlab Qonunchilik palatasi deputatlarining shu yil 24 - 27-iyul kunlari o'z saylov okruglaridagi faoliyatiga doir masalaga alohida e'tibor qaratildi.**

**Mazkur uchrashuvlar davomida xalq vakillari aholi xonadonlari, tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy soha obyektlariga borib, fuqarolar, tadbirkorlar, jamoatchilik vakillari va yoshlar bilan yuzma-yuz muloqot qilgani, saylovchilar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar va muloqotlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning borishi, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati yetkazilgani qayd etildi.**

**Shuningdek, quy palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari atroficha ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor qonun loyihalarining ijtimoiy ahamiyatga egaligi, dolzarbligi, muhimi, aholi huquq va manfaatlariga mosligiga qaratildi.**

### Tadbirkorlar uchun kafolatlangan erkin muhit va sharoitlar

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari tarqoq holda va nihoyatda ko'p miqdorda qabul qilingan bo'lib, sohaga oid 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Bu holat ular o'rtasida kolliziyalarni keltirib chiqaromol, zarur bo'lgan qonunchilik hujjatini topish hamda amalda qo'llashda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Ushbu kodeks loyihasiga 8 ta qonun va 20 dan ortiq qonunosti hujjatlarini unifikatsiya qilish orqali sohadagi munosabatlarni yagona hujjat bilan tartibga solish, davlatning aralashuvini kamaytirish, ayni chog'da tadbirkorlik huquqi sohasida yagona yondashuvni belgilash nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, loyiha bilan ishbilarmonlik faoliyatining qonuniyligi, tadbirkorlik erkinligi, subyektlar tengligi, halol raqobat, vijdonlilik prezumpsiyasi, korrupsiyadan xolilik kabi asosiy prinsiplar ham mustahkamlanyapti. Tadbirkorlik subyektlari esa kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratilayapti.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasi har tomonlama maromiga yetkazilgani, ko'plab takliflar loyiha matnida aks etganligiga urg'u berib, bir qator aniqlashtiruvchi savollarni o'rtaga tashladi. Ayrim normalar yuzasidan tushuntirishlar so'raldi.

Qonun tashabbuskorlari deputatlar ko'targan har bir masala bo'yicha asoslantirilgan tushuntirish berib o'tdi. Loyihani ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida fraksiya a'zolari ham faol qatnashgani, ular tomonidan ilgari surilgan takliflar kodeks loyihasida aks ettirilgani aytili.

Fraksiya a'zolarining fikricha, O'zLiDeP saylovoldi dasturida biznes

yuritishning olis istiqbolga mo'ljallangan imkoniyatini ta'minlash, bugungi kunda tadbirkorlik sohasini tartibga soluvchi yuzlab qonun hujjatlari mavjudligi inobatga olinib hamda davr talablaridan kelib chiqib, sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirish va liberallashtirish maqsadida yagona Tadbirkorlik kodeksini ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur kodeks loyihasida nazarda tutilayotgan normalar partiya elektorati bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlarini himoyasiga xizmat qiladi.

**Majlisda** "Mikromoliyalashtirish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham muhokama qilindi.

### Aholiga mikromoliya xizmatlarini ko'rsatish yanada takomillashadi

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ko'rib chiqilgan dastlabki hujjat - "Mikromoliyalashtirish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, ushbu qonun loyihasi bilan bank xizmatlarini ruxsat etilgan shartlar asosida ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan yuridik shaxs - mikromoliya banklari institutini joriy qilish, mikromoliya tashkilotlarini mikromoliya banklariga va mikromoliya banklarini tijorat banklariga hamda aksincha transformatsiya qilishning huquqiy asosi yaratilmoqda.



Shuningdek, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartibi-taomillari to'g'risida"gi hamda "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonunlarga tegishli o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritilayapti.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini bildirdi. Loyihadagi ayrim normalar bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar o'rtaga tashlandi. Qonun tashabbuskorlari ushbu masalalar bo'yicha batafsil tushuntirish berib o'tdi.

Qizg'in bahs-munozaralardan so'ng deputatlar qonun loyihasining qabul qilinishi mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligi oshishiga, tadbirkorlik tashabbuslari aholining keng qatlamiga xizmat qilishini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatladi.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat - "Banklardagi omonatlarini

himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Deputat J. Abdurasulovning ma'lum qilishicha, qonun loyihasining maqsadi banklardagi omonatlarini kafolatlash tizimi ishlatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, unda Omonatlarini kafolatlash agentligi huquq va majburiyatlarini, uning boshqaruv organlari, jumladan, Kengash a'zolari, bosh direktorni tayinlash mezonlari, Kengash a'zolarining vakolatlarini tugatish asoslari nazarda tutilmoqda.

xabardor etish tartibida o'tkaziladigan 17 turdagi tekshiruvlar ro'yxatini mazkur kodeksga ilova sifatida tasdiqlanib, ro'yxatga kiritilmagan barcha tekshiruvlar Biznes-ombudsmen bilan kelishilgan tartibda amalga oshirilishi taklif etilyapti.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari tomonidan qonun loyihasidagi ayrim moddalar bo'yicha qator savollar ko'tarildi. Xususan, deputat T. Choriyev loyiha 28-moddasidagi qo'shma korxonalar tashkil etish to'g'risidagi norma nima uchun chiqarib tashlanayotgani sababi bilan qiziqdi.

Qonun tashabbuskorlari ushbu masala yuzasidan batafsil tushuntirish berib o'tdi.

Deputat A. Umirov mazkur loyiha yuzasidan o'z fikrlarini bildirar ekan, ushbu hujjatni ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita va ishchi guruh a'zolari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini aytib, loyiha qabul qilingan o'zgartirishlar to'g'risida o'txaldi.

Ma'lum qilinganidek, o'tgan davrda kodeks loyihasidagi boblar nomlanishi, joylashuvi, moddalar mazmuni va qonunchilik texnikasi talablaridan kelib chiqib, undagi ayrim boblar chiqarib tashlanmoqda. Ayrim boblarning nomlanishi esa o'zgartirildi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

### Tarqoq qonunchilik hujjatlariga yagona hujjatga birlashtiriladi

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Fraksiya a'zolari mazkur jarayonda partiya saylovoldi dasturida belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, tahliiy yondashdi.

Ushbu qonun loyihasi bilan tadbirkorlik faoliyatining qonuniyligi, tadbirkorlik erkinligi, subyektlar tengligi, halol raqobat, vijdonlilik prezumpsiyasi, korrupsiyadan xolilik kabi asosiy prinsiplari mustahkamlanyapti.

Shuningdek, tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning chegaralari va tartibga solish hujjat loyihasida o'z aksini topmoqda. Qolaversa, 39 ta davlat organining 147 ta nazorat funksiyasi va Biznes-ombudsmanni

Qonun tashabbuskorlari ushbu masala yuzasidan batafsil tushuntirish berib o'tdi.

Deputat A. Umirov mazkur loyiha yuzasidan o'z fikrlarini bildirar ekan, ushbu hujjatni ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita va ishchi guruh a'zolari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini aytib, loyiha qabul qilingan o'zgartirishlar to'g'risida o'txaldi.

Ma'lum qilinganidek, o'tgan davrda kodeks loyihasidagi boblar nomlanishi, joylashuvi, moddalar mazmuni va qonunchilik texnikasi talablaridan kelib chiqib, undagi ayrim boblar chiqarib tashlanmoqda. Ayrim boblarning nomlanishi esa o'zgartirildi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

### Ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar o'rtaga tashlandi

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Mikromoliyalashtirish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan mikromoliya tashkilotlari va tijorat banklari o'rtasida "zanjir" yaratish, shuningdek, mikromoliya tashkilotlari uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyatini yo'lga o'zish, mikromoliya tashkilotlarini mikromoliya banklariga va mikromoliya banklarini tijorat banklariga hamda aksincha transformatsiya qilishning huquqiy asosi yaratilmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasida "mikromoliya banki" tushunchasi, u tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlari, mikromoliya banki ustav

kapitalining eng kam miqdori, Markaziy bank tomonidan mikromoliya banki faoliyatini tartibga solish belgilanayotir.

Deputatlar mazkur qonun loyihasi qabul qilinishi aholining keng qatlamli tadbirkorlik tashabbuslari qo'llab-quvvatlanishiga, hududlarda mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko'lamining oshishiga xizmat qilishni e'tirof etgan holda, loyihadagi ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollarni o'rtaga tashladi. Shu bilan birga, qonun loyihasini yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish va maromiga yetkazish yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini bildirdi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

### Xalqaro amaliyot va tamoyillar tatbiqi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Investitsiyalar va fraksiya faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasida investorlarning kafolatlari, huquq va majburiyatlari, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari belgilanmoqda. Shuningdek, loyihadagi mamlakatimizda yanada qulay investitsiya muhitini yaratish, investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, amaldagi investitsiya qonunchiligining ilg'or xalqaro standartlar, jumladan, Jahon savdo tashkilotining qoidalariga moslashtirishga qaratilgan normalar aks etayotir.

Mazkur qonun loyihasi bilan investitsiya sohasidagi asosiy xalqaro tan olingan amaliyot va tamoyillar ham joriy qilinmoqda. Xususan, "investitsiya faoliyati" tushunchasida investorning tavakkalchilikka asoslangan, uzoq muddat davomida bo'lishi, mahalliy iqtisodiyotga foyda (ijobiy natija) keltirishiga qaratilgani borasidagi xalqaro tan olingan "Salini" tamoyili aks ettirilayapti.

Muhokama davomida fraksiya a'zosi R. Begmatov qonun loyihasining ahamiyatiga to'xtalib, loyiha 6-moddasi bo'yicha aniqlashtiruvchi savollarni o'rtaga tashladi. Qonun tashabbuskorlari ko'tarilgan masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berdi.

Ularning aytishicha, mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi bilan investorlarning kafolatlari va erkinliklari aniq bayon etiladi, bunday huquq va kafolatlarni qo'llash bo'yicha investorlarning turli talqinlari va chalkashliklarga barham beriladi.

Fraksiyalar yig'ilishlarida, shuningdek, kun tartibidagi boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

## O'zbekiston va Qozog'iston:

## TARIXIMIZ – MUSHTARAK, MAQSADIMIZ – YAGONA

Qozog'iston – O'zbekistonning tashqi savdodagi eng yirik hamkorlaridan biri. So'nggi yetti yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash ikki barobardan ortiq o'sib, 2023-yil oxirida 4,4 mlrd. dollarga yetdi. Joriy yilning to'rt oyida bu ko'rsatkich 1,2 mlrd. dollardan oshdi. Sarmoyaviy hamkorlik yuqori sur'atda namoyon bo'lmoqda. 2017-yildan boshlab Qozog'istondan O'zbekistonga investitsiya hajmi 23 barobar oshdi. 2023-yilda Qozog'istondan O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 202 mln. dollarni tashkil etgani holda, 2024-yilning birinchi yarmida ularning hajmi 222 mln. dollarga yetdi. O'zbekistonda Qozog'iston kapitaliga ega korxonalar soni 3,7 barobar oshdi, bu esa hamkorlik loyihalariga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, sanoat kooperatsiyasi doirasida umumiy qiymati 3,1 mlrd. dollar bo'lgan 69 ta loyihani amalga oshirish, buning natijasida 14,7 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratish ko'zda tutilgan. 217 mln. dollarlik 12 qo'shma loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilib, 4,5 mingga yaqin ish o'rinlari ochildi. Umumiy qiymati 178 mln. dollar bo'lgan uchta investitsiya loyihasi, jumladan, Taraz shahrida 500 ming tonna po'lat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega elektrometallurgiya zavodi qurilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekistonning Qozog'istonga yirik investitsiyalari 2020-yilda "Alliance" kompaniyasi tomonidan 45,9 mln. dollarlik yigiruv fabrikasini restavratsiya qilish loyihasidan boshlangan va u 2023-yilda foydalanishga topshirildi. 2022-yilda "ArTel" kompaniyasi Qozog'iston bozoriga kirib keldi va Qarag'anda viloyatida maishiy oshxonaga jihozlari ishlab chiqarish zavodi qurilishiga ikki yil davomida 52,5 mln. dollar sarmoya kiritdi. Yana bir loyiha "O'zavtosanoat" kompaniyasiga tegishli bo'lib, "SariarkaAvtoProm" zavodi negizida "Chevrolet Onix" avtomobillari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga qaratilgan. Loyiha qiymati 50 mln. dollarga baholangan, investor kompaniya lizing dasturlari yordamida qo'shimcha moliyalashtirishni jalb qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda.


Qozog'iston statistika idorasi ma'lumotiga ko'ra, hozir Qozog'istonda O'zbekiston kapitali ishtirokida 2,3 mingta korxonalar ro'yxatga olingan. Ularning aksariyat qismi kichik korxonalar toifasiga kiradi, ulgurji va chakana savdo, avtomobillarni ta'mirlash, qurilish, ishlov berish sanoati, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar taqdim etish sohalarida faoliyat olib boradi.

O'zaro hamkorlik haqida so'z borar ekan, avvalo, ittifoqchilik munosabati to'g'risidagi shartnomada belgilangan tamoyillar asosida siyosiy ishonchni mustahkamlash, barcha darajadagi

muntaзам siyosiy muloqotni davom ettirish va yanada kengaytirish muhim. Do'stona aloqalar va mamlakatlar o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik munosabatlari sifat jihatdan yangi darajaga chiqishi, avvalo, har ikki mamlakat rahbarlarining siyosiy irodasi, yuksak ishonchi va strategik qarashlari natijasidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo mintaqasini O'zbekiston tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilashi asosida O'stona bilan munosabatlarning tizimli ravishda qayta tiklanishi ham ushbu siyosat muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganining yorqin namunasidir. Ko'p tomonlama platforma doirasida yaqin hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda tashabbuslarni birgalikda ilgari surish talab qilinmoqda. Yirik xalqaro tadbirlar, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi va O'stonada

aprel oyida mamlakatingizga amalga oshirgan tashriflari O'zbekiston – Qozog'iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga alohida turki berdi. Umuman, ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi muntazam tashriflari turli sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirishga doimiy intilishdan dalolat beradi. O'zaro hamkorlik MDH, TDT, OHICHK, SHHT kabi ko'p tomonlama formatlar doirasida ham amalga oshirilmoqda.

Ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi hamkorlik va to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni kengaytirish bo'yicha kelishuvlarga erishilganini alohida ta'kidlash joiz. Hududlararo hamkorlik forumlari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Siyosiy muloqotlar, o'z navbatida, iqtisodiyotlar bir-birini to'ldirishga zamin yaratmoqda, natijada sanoat va texnologik rivojlanishning umumiy makonini



Turkiston viloyati va Sirdaryo viloyati hududlarida qo'shma mahsulot ishlab chiqarish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mamlakatlarimiz hududlarida suv sohasidagi hamkorlik, suv taqsimotini raqamlashtirish va avtomatlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotir.

Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muntazam barqarorlik va farovonlikning muhim omilidir. Mamlakatlarimiz 2030-yilga borib o'z yalpi ichki mahsulotlarini ikki barobarga oshirishga intilyapti. Bu sanoat, qurilish va transport kabi sohalarda kuchlarni birlashtirishni talab etadi. Kooperatsion hamkorlikni kengaytirish xorijiy investitsiyalarni xomashyo yetishtirish va tayyorlash uchun emas, balki qayta ishlab sohalarga yo'naltirishga yordam beradi va bu iqtisodiyotlarimizni global qo'shilgan qiymat zanjirlariga integratsiyalaydi.

Davlatlarning savdo imkoniyatlari hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda transport va logistikaning o'ri beqiyos. Mamlakatlarimiz muhim transport yo'nalishlari, jumladan, Markaziy Osiyodan Xitoy, Rossiya, Yevropa va Janubiy Osiyoga tranzit yo'llari chorrahasida joylashgan. Dunyodagi keskinlik va ziddiyatlar sharoitida muntazam tranzit va transport markazi sifatidagi ahamiyati oshib boryapti. Shu ma'noda, mamlakatlarimiz o'rtasidagi transport yo'llari va infratuzilmani rivojlantirish, transport tarmog'ini modernizatsiya qilish hamda kengaytirish bo'yicha qo'shma loyihalar savdo aylanmasi va iqtisodiy hamkorlikni sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. Ushbu sohada yangi ekspert bozorlariga chiqish va foydalaniladigan transport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishga yordam berishi mumkin bo'lgan muhim loyihalardan biri – O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan

Muxtasar aytganda, mamlakatlarimiz rahbarlarining uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati tufayli taqdiri tutash ikki xalq do'stligi, o'zaro hamkorligi yanada samarali kechmoqda, rishtalar mustahkamlanmoqda. Shubhasiz, bu munosabatlar dunyo taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi. Zotan, Qozog'iston Prezidenti ta'kidlaganidek, "Qozog' – o'zbek tandemi hayotiy zarurat bo'lib, faqat uyushibgina mamlakatlarimizning barqaror rivojlanishini ta'minlashimiz mumkin".

**Alimbek JUMANOV,**  
Shimkent universitetining  
Iqtisodiyot va biznes kafedrasini professori.  
Qozog'iston

## YANGILIKLAR xabarlar

## TAFSILOTLAR

## Ijro, mas'uliyat va nazorat

*Bosh prokuror N. Yo'ldoshev boshchiligidagi Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika shtabining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi.*



Unda Prezidentimizning "Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi hamda yoqilg'i-energiya resurslaridan samarali foydalanish, ularni talon-toroj qilish holatlarining oldini olish, yetkazilgan zararlarni undirish borasida bajarilgan ishlar ahvoli tanqidiy muhokama qilinib, kelgusidagi zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

## Fransiya aviakompaniyasi Navoiy viloyatiga ilk parvozini amalga oshirdi



*Kecha Fransiyaning "CMA CGM Air Cargo" transport-logistika aviakompaniyasi Chjenchjou – Navoiy – Parij yo'nalishi bo'yicha ilk parvozini amalga oshirdi. Samolyot mahalliy vaqt bilan soat 06:27 da Navoiy xalqaro aeroportiga qo'ndi.*

An'anaga ko'ra, yuk tashuvchi samolyot suv arkasi bilan tantanali ravishda kutib olindi. Ta'kidlash joizki, Chjenchjoudan Parijga muntazam reyslar Navoiyda texnik to'xtash bilan haftasiga 5-marta "Airbus A330" yuk tashuvchi samolyotlarida amalga oshiriladi.

## Hamyurtimiz – xalqaro olimpiada g'olibi

*Joriy yilning iyul oyida Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida Xalqaro matematika olimpiadasi o'tkazildi.*

Unda poytaxtimizdagi "Pifagor School" xususiy maktabi o'quvchisi Javohir Muhammadov muvaffaqiyatli ishtirok etib, oltin medal sohibi bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, dunyoning o'ttizga yaqin davlatlaridan kelgan yuzdan ortiq o'quvchilar orasida O'zbekiston sharafini munosib himoya qilgan hamyurtimiz ayni vaqtda mazkur maktabning 9-sinfini tamomladi.

## Malaka oshirish uchun – Germaniyaga

*28 nafar o'zbekistonlik nemis tili mutaxassisi malaka oshirish uchun Germaniyaga jo'nab ketdi. Ular Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda germaniyalik hamkorlar tomonidan respublika bo'yicha saralab olindi.*



Ular 8 hafta davomida Germaniyada malaka oshirib qaytgach, yoshlarni "Ishga marhamat" monomarkazlarida nemis tili o'qitib, ularning til ko'nikmalarini oshirish borasida faoliyat olib boradi.

Mazkur loyiha doirasida jami 168 nafar nemis tili mutaxassisi 5 yil davomida bosqichma-bosqich Germaniyada til malakalarini oshirishi ko'zda tutilgan.

"Xalq so'zi".

## SARBOZORLIK 33 NAFAR YOSH ISHLI BO'LDI

*Respublikamizda mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini yuksaltirish va taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shilishning muhim omili hisoblanadi. Masalaning dolzarbligi shundaki, mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar butun aholining salmoqli qismini tashkil qiladi. Dunyo tajribasida bu kabi masalalarning yechimi va aholining bandligini kengaytirish imkoniyati ko'p jihatdan o'zini o'zi ish bilan ta'minlashga bog'liq.*

## Bandlik

Yurtimiz yoshlar siyosatida ustuvor vazifa sifatida barcha rahbarlarga hududlar kesimida, avvalo, ishsiz, norasmiy sektorda band bo'lgan va chet elga ishlab uchun ketgan yigit-qizlar bilan tizimli ishlab vazifasi alohida qayd etilgan.

– Joriy "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 7-yanvardagi "2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida"gi qarori asosida institutimizga Navbahor tumani "Sarbozor" mahalla fuqarolari yig'iniida istiqomat qiladigan 47 nafar 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qiz

biriktirilgan, – deydi Navoiy davlat pedagogika instituti rektori Muhiddin Kalonov. – Ular bilan muloqotlar chog'ida muammolari o'rganilib, o'rinli murojaatlarga ijobiy yechim topilmoqda. Xususan, mahalla yoshlaridan bir guruhiga tayyinchilik, sartsaroshlik va puyvandlilik hunarlarining anjomlari olib berilib, o'zini o'zi band etishi ta'minlandi.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joizki, Sarbozor mahallasida bugungi kunda 2 561 nafar aholi istiqomat qilsa, ularning yarmidan sal oshiqroq'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Ayni paytda institut ko'magi bilan mahallaning ishsiz yoshlaridan 33 nafarining jitmoyi bandligi ta'minlandi.

**Temur ESHBOYEV**  
("Xalq so'zi").

## MOLIYAVIY SAVODXONLIK

## MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM SHARTLARIDAN BIRI

*Moliyaviy savodxonlik – fuqaroning moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida faol pozitsiyasini egallashi, jamiyatda o'zi va oila a'zolarining moliyaviy farovonligini oshirish uchun bilim va ko'nikmalarini namoyon etadigan ijobiy xususiyat.*

## Fikr

Binobarin, inson hayoti davomida yetarli darajadagi turmush farovonligiga ega bo'lishi o'zi tomonidan qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlarning samaradorligi bilan chambarchas bog'liq. Shu ma'noda aytish joizki, moliyaviy savodxonlik aholining pul mablag'larini qayta taqsimlash va investitsiya qilish hamda farovonligini ifodalovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholining moliyaviy savodxonligi dapajasini oshirishda tadbirkoplik subyektlari va moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda tijorat banklari, nonbank kredit tashkilotlari va sug'upta kompaniyalari tomonidan moliyaviy resurslarni rejalashtirish va boshqarish, to'lov xizmatlari, omonat hisobvopaqalari, kredit, tashqi iqtisodiy faoliyat, sug'upta xizmatlari ko'psatilishining shaptilari, qoidalarni keng ommaga yetkazish orqali ularning

moliyaviy bilim va ko'nikmalapini oshirishga erishilayapti.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirish sharoitida aholi va tadbirkorlar tomonidan tijorat banklari xizmatlaridan foydalanish darajasi oshib borayotgani kuzatilmoqda. Bu esa Markaziy bank asosiy stavkasi yoki undan past darajada imtiyozli kreditlar ajratilayotganining samarasidir. Aholiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik g'oyalari qo'llab-quvvatlash va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadida turli davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan imtiyozli kreditlar mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kredit rasmiylashtirish va undan foydalanish orqali bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanmoqda, aholining moliyaviy jihatdan qarashlari yuksalmoqda.

Shu bilan bir qatorda, tashkilotlar tomonidan o'z mijozlari o'rtasida moliyaviy savodxonlikni yuksaltirishga qaratilgan ta'lim dasturlari amalga oshirilishi bu yo'nalishdagi ko'rsatkichlarning hajmi va sifati ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatyapti.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotiga ko'ra, so'nggi yetti yilda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash hajmi 2,4 barobar oshib, o'tgan yilda 4,5 mlrd. AQSh dollariga yetdi.

"Parij – 2024" kundaligi

IKKI BOKSCHIMIZ OLIMPIYA O'YINLARI FINALIDA

Parij shahrida davom etayotgan Olimpiya o'yinlarining navbatdagi kun bahslari nihoyasiga yetdi. Musobaqa tobora qiziqarli tus olib, qator medallar shodasi o'z egalariga topshirib borilyapti.



Dam olish kunlari O'zbekiston sport delegatsiyasi sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritma olgan bo'lsa-da, ikki bokschimiz – Hasanboy Do'smatov va Lazizbek Mullojonov finalga yo'l olib, oltin medal uchun kurashni davom ettiradigan bo'ldi.



H. Do'smatov (-52 kg.) turnir yarim finalida Kabo Verde mamlakati bokschisi David de Pinaga qarshi to'qnash keldi. Ushbu jangda bokschimiz raqibiga hech qanday imkoniyat qoldirmay 5:0 hisobida g'alabaga erishdi. Endi bokschimiz navbatdagi Olimpiya o'yinlaridagi o'zining ikkinchi oltin medalini qo'lga kiritish uchun fransiyalik Bilal Bennamaga qarshi ringga ko'tariladi. Ushbu jang 8-avgustdan 9-avgustga o'tar kechasi bo'lib o'tadi. Ma'lumot uchun, Hasanboy Toshkentda 2023-yilda uyushtirilgan jahon chempionati finalida ham aynan Bennama bilan to'qnash kelgan va raqibini muddatidan oldin mag'lub etgandi.

Og'ir vaznli bokschimiz L. Mullojonov (-92 kg.) Parij Olimpiadasi doirasidagi yarimfinal jangida tojikistonlik Davlat Boltayevga qarshi kechgan bellashuvda 4:1 hisobida g'alaba qozonib, finalga chiqdi. Lazizbek asosiy bahsda asli kubalik, hozirgi kunda Ozarbayjon sharafiga himoya qilayotgan Alfonso Domingesga qarshi ringga ko'tariladi. Jang 10-avgust kuni o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Uzunlikka sakrash bo'yicha saralash bahslarida qatnashgan Anvar Anvarov 7,77 metr natija bilan finalga chiqa oladi.

Veloshosse guruh poygalarida ikki ayol sportchimiz – Olga Zabelinskaya marraga 70-bo'lib yetib kelgan bo'lsa, Yanina Kuskova biroq yaxshi natija qayd etib, 51-o'rinni egalladi.

Safina Sa'dullayeva yengil atletikaning balandlikka sakrash musobaqasining final bosqichida ishtirok etdi. Afsuski, 1,98 metrga sakrashda unga o'mad yetishmadi. Safina turnirni 1,95 metr natija bilan 7-o'rinda yakunladi.



Olimpiya o'yinlarining boshqa sport turlarida o'ziga xos natijalar qayd etilayotgani mutaxassisu muxlislar qiziqishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, serbiyalik Novak Jokovich turnir finalida ispaniyalik Karlos Alkarazga qarshi kortga chiqdi. 2 soatu 51 daqiqalik murosasiz o'yinda Jokovich 7:6, 7:6 hisoblarida g'alaba qozondi va Olimpiada chempioniga aylandi. Ta'kidlash lozimki, 37 yoshli Jokovich o'z faoliyatida ilk bor Olimpiadaning oltin medalini qo'lga kiritdi. U bungacha tennisdagi barcha musobaqalarda g'olib chiqqan edi.

Yengil atletikaning 100 metrga sprint yugurish bahslarida g'olib va sovrindorlarni aniqlashda fotofinish xizmatidan foydalanildi. Unda AQSh vakili Noa Layls 9,784 sekund bilan oltin medalga sazovor bo'ldi. Kumush medal g'olibdan soniyaning mingdan besh ko'rsatkichida ortda qolgan, ya'ni 9,789 natijani ko'rsatgan yamaykalik Kishan Tompsonga nasib etdi. Bronza medaliga esa amerikalik boshqa sportchi Fred Kerli ega chiqdi.

Olimpiya o'yinlarida 21 ta oltin, 17 ta kumush, 14 ta bronza – jami 52 medalni qo'lga kiritgan Xitoy vakillari umumjamoa hisobida peshqadamga aylanib oldi. Keyingi o'rinlardan AQSH (19 ta oltin, 29 ta kumush, 27 ta bronza, jami 75 ta medal) va Avstraliya (13 ta oltin, 11 ta kumush, 8 ta bronza, jami 32 ta medal) terma jamoalari o'rin olishgan.

O'zbekiston sport delegatsiyasi esa bitta oltin va ikkita bronza medal bilan 33-o'rinni egallab turibdi.

S. ISLOMOV ("Xalq so'zi").

UNUTILAYOZGAN EZGULIK JARCHILARI

YOKI MILLIY O'YINLARDAN YIROQLAB BORAYOTGAN AVLOD HAQIDA

Harakatlanish, mushohada yuritish, o'ylash va tezda yechim topishga undaydigan o'yinlar bolaning ham aqlan, ham jismonan, ham ruhan rivojlanishiga yordam berishi bilan katta ahamiyatga ega. Ular navqiron avlod vakillari sog'lom, teran fikrli bo'lishida ko'makchi bo'ladi, shuningdek, jamiyatga uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Afsus bilan qayd etish joizki, so'nggi yillarda nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo bolalari elektron quрилmalarda o'ynaladigan o'yinlar asiriga aylandi. To'g'ri, ulardagi o'yinlar tasavvurni boyitishi, aqlni charxlashi mumkin, ammo barchasi harakatsiz o'yinlardir.

Ayni shu joyda bizga asrlar osha yetib kelgan xalq o'yinlari yordam beradi. Agar farzandlarimiz ongiga ularning ahamiyatini singdira olsak, shunday o'yinlar asosida ulg'aytirsak, vaqti kelib Vatanga muhabbat, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, do'stga sadoqat, rostgo'ylik, fidoyilik, omonatni ko'z qorachig'idek saqlash kabi bir qancha umuminsoniy tushuncha va fazilatlar qalblaridan mustahkam o'rin olishiga shubha yo'q.

Ogohlik qo'ng'irog'i

Qiyoslash uchun ikki manzara

So'zimiz avvalida sizga quyidagi ikki holatni tasvirlash orqali nimalarga erishdigu nimalarni yo'qotdik, topganlarimiz qanchalik zaruru yo'qotganlarimiz qanchalik qadri ekanini his ettirishga harakat qilamiz.

...Qishloq. Tong. Pastakkinna uylar, o'lis-olislariga uzangan dalalar, qo'rada ma'rayotgan qo'y-qo'zi, ahlon-ahyonda vovullayotgan kuchuk, tandirdan non uzayotgan kekinlar... Yon-atrofga quyosh iliq nurlarini sochib turibdi, osmondan momiq bulutlar kezmoqda, goh-gohida shabada esadi.

Salqin soylari daraxtlar tomondan bolalarim shox-shodon kulgilari, xushchaqchaq ovozlari eshitiladi. Ular ota-onasining dakkisiyu chaqirishlariga qaramasdan turli o'yinlar o'ynashda davom etmoqda. Avvaliga quvllashmochiq o'ynashadi, keyin bekinmochiq, shuningdek, "oq terakim – ko'k terakim?", "sohig", "xola-xola" ham ularning kundalik o'yinlaridan uyoqan. Garchi bu o'yinlarda kimdir yuqtazadi, kimdir yutadi, ammo ular shast bilan yana davom etishadi. Ora-orada bir-biridan ranjish, bahsu tortishish holatlari ham uchraydi.

Shunisi quvonarliki, ular kun yakunida yana do'stga aylanib, bir-biri bilan ertaga ham o'ynashga kelishib oladi. Shu tariqa kunduz o'rnini tun egallaydi. O'yinga to'yumagan, g'oliblikdan umidini uzmagani ba'zi bolalar ko'chada yana biroq qoladi, ba'zilari esa uyga qaytib, ertangi kun uchun ajoyib rejalarini tuza boshlaydi.

...Shahar. Tong. Osmono'par binolar, ravn va keng yo'llar, bahavo ko'chalar,

katta yo'ldan zuvullab o'tayotgan mashinalar, signal ovozlari, qayergadir shoshilayotgan odamlar... Quyosh hamon atrofga saxiylik bilan nur sochadi, osmon oppoq bulutlar bilan bezangan, shamol esishi ko'ngilga o'zgaricha huzur bag'ishlaydi.

Ko'p qavatli uylar ostidagi so'lim bog'da qurilgan o'yingohda biror bolakayning ovozi, kulgisi, shodon qiyiqirig'i eshitilmaydi, chunki ular ayni paytda qo'llaridagi gadjetu telefonlarda qandaydir o'yinga ovora. Ko'p qavatli uyning 5-qavatidan ovoz eshitiladi: "Abror, hoy Abror! Uyga kir, dadang chaqiryapti, ertalabdan nima bor ko'chada? Tez bo'l". Erkatoy o'g'il onasining so'zlariga parvo ham qilmay do'stlariga so'nggi o'yinlarda yiqqan ballari, o'tgan bosqichlari haqida maqtanishda davom etadi. Bolalar avvaliga bir tarmoqqa ulanib "PUBG" o'ynashadi, "Minicraft", shuningdek, "Stickman Party", "Counter Strike", "Clash of Clans" kabi o'yinlar ham ularning doimiy va sevimalari qatorida turadi. Bu o'yinlar qiziq bo'lishiga qaramay, harakatdan yiroq, aqlni charxlashi qiyin, biroq qiziqqan bolalar undan bosh ko'targisi kelmaydi.

Odatda, o'yin davomida kimdir kimmirdi o'tib qo'ygani haqiqiy urushga sabab bo'ladi.

Shunisi achinarliki, ular kun kech bo'lasidan uy-uyiga tarqalishadi, bir-biriga yovqarash qilishadi, hatto do'stlik rishtalariga darz ketishi ham mumkin. O'yinga to'yumagan ba'zi bolalar ko'chada qoladi, ba'zilari esa uyga qaytib yana telefon yoki kompyuterga mukkasidan ketadilar.

Kimnidir qorlash yoki oqlash niyatidan, nima yaxshiyu nima

yomonligini ko'rsatishdan yiroqimz. Xulosa chiqarish esa o'zingizga havola.

Xalq o'yinlari – hayot maktabi

Inson umri o'tib, qaddi bukilgani, sochiga oq, yuziga ajin, qo'lga aso tushgani sayin bolaligini qo'msay boshlaydi, uning pokiza, hayotning tashviyu yumushlaridan xoli davriga qaytish ilinj qalbini bir lahza ham tark etmaydi. Biroq na iloj...

Odanning bolalig qanchalik rang-barang, baxtli va quvonchli damlarga, ayniqsa, turfa o'yinlarga hamohang o'tgan bo'lsa, shunchalik esda qolishi rost. Deylik, bundan 30 – 40 yil ilgari, hali hayotimizga elektron quрилmalar kirib kelmagan paytlarda bolalig o'tgan odamlar o'sha onlarni boshqacha eslashi, sog'inishi tayin. Ammo, shunisi qiziqki, bugungi avlod ulg'aygach, bolaligini qanday eslar ekan? Mas'um davrini telefon va planshetlarga mukkasidan ketib, internet kafelarda shafqatsizlik jo bo'lgan, insoniylikdan yiroq o'yinlarni o'ynab o'tkazgan avlod u kunlarni sog'inarmikan? Savollar ko'p, javoblar esa, afsuski, hali mavhum.

Darhaqiqat, asrimiz axborot, fan va texnika yuksak taraqqiy etgan davr. U bizga misli ko'rimagan yengilliklarni taqdim etdi, ishlarimiz sifat va son jihatdan yaxshilandi, uzog'imiz yaqinlashdi... Lekin tan olish kerak, bu zamon o'zi bilan bir qator muammolarni ham olib keldi. Xususan, kelajak avlod egalari turli elektron quрилmalar – telefon, planshet, kompyuter va hokazolarga ruju qo'ydi. To'g'ri, ularning bu texnikalarni bilishi foydali, ish unumdorligini oshiradi, boshqalardan bir qadam oldinda yurishlariga turki beradi. Taassufki, ushbu zamonaviy quрилmalardan faqat o'yin o'ynash maqsadida foydalanayotgan bolalar safi tobora oshib bormoqda. Bu ularni, hatto hali o'n yoshga ham yetmasdan ko'z bilan bog'liq kasalliklarga, qaysarlik, gapga kirmaslik kabi holatlarga olib kelayotgani ham ayni haqiqat.

O'zbek xalqi azaldan bolajon. Biz farzandimiz tug'ilishidan to kamol topib, xalq tilida aytganda, "odam bo'lishi" gacha bolajon davrga o'zimizi mas'uliyatli deb bilamiz, bola-chaqam deya yelib-yuguramiz, ishlaymiz. Ammo so'nggi paytlarda ba'zi otanalalar bolajon mehri, e'tibor o'rninga, telefon berayotgani juda achinarli holat.

Mabodo ulardan bu ishing maqsad-muddaasini so'rasangiz, bolasini ovutishi yoki boshqa tengdoshlaridan kam bo'lmashini istashini ro'kach qiladi. Aslida bu mas'uliyatdan qochishning bir yo'li xolos.

Afsuski, farzandlarimiz yugursin, quvlasin, sakrasin, qisqasi, ko'proq harakatda bo'lsin, shunda sog'lom, ma'nan yetuk, qaddi-basti chiroyli, kelishgan inson bo'lib ulg'ayadi deymizu niyatimizga teskari ish qilamiz. Xo'sh, ushbu ezbuz niyatimizni amalga oshirishda bizga kim yoki nima yordam beradi? Albatta, xalqimiz tomonidan asrlar davomida asrab-avaylanib, sayqal topib, o'ynalib kelayotgan milliy va harakatli o'yinlar.

Haqiqatan ham, xalq dahosi yaratgan bolalar o'yinlari asrlar davomida navqiron naslni chiniqtirish va tarbiyalash vazifasini bajarib kelayotgani bilan ahamiyatlidir. Ularda xalqimizning an'aniy turmush tarzida sinalgan, o'zbekona milliy ruh bilan yo'g'rilgan jismoniy-tarbiyaviy hamda ma'naviy-axloqiy qarashlar o'z aksini topgan.

Zero, bola o'ynab zavq oladi, o'ynab kurashga tushadi, o'ynab mag'lubiyat alamini tortadi, o'ynab g'oliblik nashidasini suradi, o'ynab o'rganadi, o'ynab kashf etadi, ijod qiladi, o'ynab hamdardlik tuyg'usini tuyadi, o'ynab birlashadi, hatto o'ynab judo bo'ladi, yolg'izlanadi. Xullas, o'ynab yashaydi, harakat qiladi, fikrlaydi. Xalq o'yinlari shuning uchun ham bolalar uchun hayot maktabi deyilishi bejiz emas. Bugungi kunda ularni unutilayotganimiz, tobora yiroqlashayotganimiz ertaga salbiy oqibatlariga olib kelmasaydi...

Bolaliking shirin xotiralari

Milliy o'yinlarimiz orasida vositai, harakatlil, bolani rivojlantiruvchi o'yinlar juda ko'p. Chunki bizgacha yashab o'tgan ajdodlarimiz insonning har tomonlama kamolotiga yetishuviga o'yinlar uzviyligi va uzluksizligiga katta e'tibor bergan. Misol uchun, bahoriy o'yinlar keng o'tloqlar, soy bo'ylari, qirda o'ynalgan. Bu, yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson ruhiyatining tabiat bilan uyg'unligidan dalolat. Shuningdek, ular orasida hayvonot va nabotot olami bilan bog'liq o'yinlar ham uchraydi. Masalan, ajdodlarimiz qushlar hayotini kuzatib borgan. Asrlar davomida tabiatni asrash, unga mehr qo'yish ota-bobolarimiz tomonidan qadriyat darajasida qaralgan va shunga mos o'yinlar o'yab topilgan.

Mulohazalar, fikrlar, takliflar...

Shomirza TURDIMOV, folklorshunos olim:

Ota-bobolarimiz kechirayotgan hayot tarzi, orzu-armonlari, istak va intilishlari, xususan, tabiat hodisalariga qarab ham turli o'yinlarni kashf etishgan. Ularning umri davomida qiladigan xatti-harakatlari, tirikchilik tashvihi, chetdan bo'ladigan turli qarshiliklarni yengish, oilani himoya qilish kabi hayotiy vaziyatlar bu o'yinlarga asosiy mavzu qilib olingan.

Ajdodlarimiz o'yab topgan o'yinlarda, asosan, yon-atrofga yuz berayotgan voqea va hodisalar syujetlari jonlantirilgan, ular odamlarning hayoti bilan bevosita bog'liq ravishda shakllangan. O'yinlar insonni ma'nan, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashi bilan, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Xalqimiz orasida yigiting belbog'i ham, qizning ro'moli ham oddiy mato, zamonaviy tila aytganda, aksessuar hisoblanmaydi. Ular mardlik, or-nomus, hayo, sadoqat, poklikning timsolidir. Shu bois belbog' qadimdan azizlangan, o'z so'zida turadigan, aytganidan qaytmaydigan yigitlar "Belida belbog'i bor" deya maqtalgan. Yuziga ro'molini yopgan qiz o'zining uyalgani, tortinganini bildirgan. Xalqimiz orasida aynan shu matolar bilan bog'liq o'yinlar ham talaygina.

Kelajagimiz egalaring badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi bilan yaqindan tanishishi ular o'ynayotgan o'yinlar mazmuni bilan ham bog'liq. Chunki o'yinlarda inson hayoti, boshidan kechirayotgan voqea-hodisalar va ana shularga nisbatan munosabat aks etadi. Bular esa insoniylikning muhim shartlari bo'lgan – odob-axloq, jasurlik, mardlik,

vatanparvarlikni tarbiyalashga katta hissa qo'shadi.

Husniya DO'STMURODOVA, bolalar shifokori:

Bilasiz, ko'p harakat qilgan organizm yashovchan bo'ladi. Shuning uchun ham o'yinlar orqali yosh organizmning talab va ehtiyojlari qondiriladi, ijodiy faolligi oshiriladi, ularda topqirlik, tezkorlik, shijoat tarbiyalanadi. Qolaversa, o'yin orqali bolalar juda ko'p narsalarni bilib oladi. Demak, bilishga bo'lgan kognitiv talab ham o'yin orqali ado etiladi.

Bugungi kunda ko'pchilik o'g'il-qizlarimiz telefon yoki internet kafelarda jang va urushdan iborat, mazmuni faqat o'ldirish, yo'q qilish bo'lgan o'yinlarni o'ynab, diydasi qotib ketayotgani bor gap. Eng achinarlisi, ularga bu yo'lni o'zimiz ochib berdik, vaqtida tushuntiradik, ogohlantirmadik, jim turdik. Ertaga qandaydir salbiy holat yuz bersa, hamma ayb gardanimizga tushishi borasida o'yab ham ko'rmadik.


Oldimizga ko'plab ota-onalar bolasining gapga kirmasligi, injiq bo'lib qolgani shikoyati bilan keladi. Bu qandaydir kasallik bilan bog'liq emasligi, ular aynan telefon va kompyuterga bog'lanib qolayotganini aytisak, so'zimizni rad etishadi. Holbuki, soatlab ekranga tikilib o'tiravergan bolaning ko'zi to'ladi, asabi charchaydi, so'ng xarxasha qiladi, gapga kirmaydi. Eng yomoni, qo'li va qalbini elektron quрилmalar va ulardagi chalg'ituvchi narsalar,

jangari o'yinlardan ko'z uzolmayotgan bolalar kun kelib oilasi, yaqinlari va atrofidagilarga befarq bo'lib qolishi hech gap emas.

Istardikki, farzandlarimiz harakatlil o'yinlardan yiroqlashmasin, ota-onalar bu ishda mas'uliyatni o'z bo'yiga olsin, farzandlarini o'zlaril bolalik davrida o'ynagan o'yinlar bilan tanishtirsin, o'rgatsin.

Abdulaziz ASADULLAYEV, 125-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi:

Tengdoshlarimiz, do'stlarimiz bilan bir joyga yig'ilsak, albatta, telefonga so'nggi yuklab olingan o'yinlarni o'ynaymiz. Ularning aksariyati urush, jang bilan bog'liq. Kim ko'proq ochko to'plasa, bosqichdan bosqichga qiyalmasdan o'tsa, o'sha boladan o'rganishga harakat qilamiz. Birgalashib, bahslashib, talashib-tortishib



eng ko'p o'ynaydigan o'yinlarimizdan biri "PUBG MOBILE" bo'lib, bu o'yinda siz jamoa yoki yakka holda qolgan jamoa yoki odamni o'ldirishingiz kerak bo'ladi. Qanchalik ko'p odamni o'ldirsangiz, shunchalik ko'p pul yig'asiz va qurollanishingiz mumkin.

Goh-gohida o'rtoqlarim bilan telefon orqali futbol, shashka, minikraft ham o'ynab turamiz, biroq to'g'risini aytсам, bular odamni tez zeriktirib qo'yadi.

Ko'chada o'ynaladigan o'yinlarning ba'zilarini bilaman. Masalan, telefonda o'yinlarning zerikkan paytlarimiz mahalladagi bolalar bilan arqon tortish, "lanka", "quvllashmochiq", futbol o'ynaymiz. Ammo orada janjal ko'tariladi, kimdir mag'lublikka chidolmaydi yoki orqada qolib ketganidan ranjiydi. Agar ota-onalarimiz, aka-opalarimiz bizga o'zlaril bolalikda o'ynagan o'yinlarni o'rgataman deyisha, qarshiligimiz yo'q. Lekin, afsuski, ular o'z tashvihi, ishidan ortmayapti. Shuning uchun ham biz balki ular bir paytlar o'ynagan o'yinlarni bilmasmiz, uzoqlashib borayotgandirmiz.

Rahmatjon BOBOJONOV ("Xalq so'zi").

Italiyalik yetakchi dizaynerlar Andijon viloyatida to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga jalb qilindi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT 2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-742. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda. Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuqub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling. TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefon: 71-233-11-07. MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir N. Ostonov. Musahhah S. Isломov. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.56 Topshirildi — 00.10 1 2 3 4 5 6